

# Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi delegatsiyasini qabul qildi



2 dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda amaliy tashrif bilan bo'lib turgan Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Administratsiyasi rahbarining o'rinbosari Dmitriy Kozak boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Oliy darajadagi samarali muloqot tufayli O'zbekiston-Rossiya ko'p qirrali hamkorligi keyingi yillarda jadal sur'at bilan rivojlanayotgani, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari mustahkamlanib borayotganini davlatimiz rahbari katta mamnuniyat bilan qayd etdi.

Dmitriy Kozak O'zbekiston Prezidentiga samimiy qabul uchun minnatdorlik bildirib, Rossiya Prezidenti Vladimir Putinning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Bo'lajak ikki tomonlama va ko'p tomonlama formatdagi uchrashuvlarga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish masalalari ko'rib chiqildi. Ushbu tadbirlar kun tartibini aniq amaliy mazmun bilan boyitishga alohida e'tibor qaratildi.

Xalqaro siyosatning ayrim jihatlari yuzasidan ham fikr almashildi.

**Manba**